

## MILLIY HUNARMANDCHILIK VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI

*Shomirzaev Maxmatmurod Xuramovich*

*Termiz davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc).*

*Annotatsiya. Maqolada milliy hunarmandchilik va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati bayon qilinib, mazmun-mohiyati mantiqan ketma-ketlikda izchil yoritilgan.*

*Tayanch so'z va tushunchalar: kulol, sopol, hunarmand, xumdon, chang, hunarmandchilik, kulolchilik charxi, ganch o'ymakorligi, naqsh, misgarlik.*

## НАЦИОНАЛЬНОЙ РЕМЕСЛЕННОСТЬ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович*

*Профессор Термезского государственного университета, доктор педагогических наук.*

*Аннотация. В статье описывается народное мастерство и его социально-экономическое значение с логической и последовательной логикой.*

*Ключевые слова и понятия: керамика, керамика, ремесленник, утонченность, пыль, ремесла, керамика, ганчевая гравюра, узор, медь.*

## NATIONAL CRAFTS AND SOCIO-ECONOMIC ACTIVITY

*Summary. The article describes folk craftsmanship and its socio-economic significance with a logical and consistent logic.*

*Keywords: ceramics, ceramics, artisan, refinement, dust, crafts, ceramics, ganch engraving, pattern, copper.*

Kirish. Kulol-sopol idish va buyumlar tayyorlovchi hunarmand hisoblanadi. U maxsus tuproqdan qorilgan loydan piyola, kosa, tovoq, lagan, ko'za, xurmacha, tog'ora, xum, tandir va boshqa buyumlar tayyorlash, ularni sirlab bezash va xumdonda pishirish bilan shug'ullanadi. Asosiy asbobi – charx bo'lib hisoblanadi. U hamma xalqlarda asosan bir xildir. Kulollar bundan tashqari turli o'yinchoqlar, koshinlar va kuvurlar ham tayyorlay oladilar. Ularning kasbi “kulollik”, “kulolchilik” deb yuritiladi.

Kulollik, kulolchilik - hunarmandchilikning loydan turli-tuman idish, buyum, qurishish materiallari va boshqalar ishlaydigan sohasi hisoblanadi. O'tda qizdirilganda toshsimon bo'lib kotib pishadigan maxsus (qoramtir, sarg'ish, ko'kimtir, yashil tovlanadigan va boshqacha) tuproqdan idish tayyorlashni odamlar neolit davrining boshlaridayok (miloddan avval 5 ming yillik) bilganlar.

Daslabki, paytlarda idishlar loydan tayyorlanib, quritib, keyin gulxanda qizdirilgan. Kulolchilikda ishlatiladigan tuproqjahonning hamma yerida ham borligi deyarli barcha xalqlarda kulolchilikning keng tarqalishiga imkon berdi. Daslab, kulolchilik bilan ayollar (miloddan avval 4-ming yillikning oxirlari (Mesopatamiya)da, va 3-ming yillikning boshlari (Misr)da shug'ullangan bo'lsalar, keyinchalik, kulolchilik charxi ixtiro qilingach esa, kulolchilik bilan erkaklar ham shug'ullana boshlaganlar. Unda idishlar maxsus o'choq va xumdonda pishirilgan. Hozirgi kunda kulolchilikning sodda usullari Osiyoning tog'li hududlarida yashovchi xalqlarda hali ham mavjud.

Neolit davriga mansub qarorgoxlarning qazib topilgan qoldiqlari o'sha davrlarda idishlarning tagi uchli qilib tayyorlanganini ko'rsatadi. Bu shundan dalolat beradiki, o'sha davrda idishlar yerga suqib qo'yib ishlatilgandir [1].

Eneolit davri (mis asri)da Sharq mamlakatlari va Qadimgi Gresiyada nafis sopol idishlar tayyorlash, sopolan arxitekturada foydalanish avj oladi, keyinchalik sirlash usullari kashf etilgach, kulolchilik mahsulotlarining badiiy qimmatini osha boradi [2].

Afrosiyobda va O'rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan arxeologik qazilmalar VII-XII asrlarda kulolchilik O'rta Osiyoda ancha rivoj topganini ko'rsatadi. XIII asrda mo'g'ullar xujumi oqibatida kulolchilik sekin rivojlandi. XIV-XVI asrlarga kelib esa yana avj oldi. XVII-XVIII asrlarda O'rta Osiyoning bir necha feodal davlatga ajralishi turli o'lkalar o'rtasida o'zaro aloqalarning susayishiga sabab bo'ldi, lekin, shunga qaramay hunarmandchilikning barcha turlari qatori kulolchilikdahan turli joylarda turlicha uslublar vujudga keldi. XIX - asr kulolchilik mahsulotlarni yog'och va ganch o'ymakorligi naqashariga yaqin bezagi bilan ajralib turadi.

Kulolchilik mahsulotlarining, jumladan, idishlarining shakli asrlar osha davr va did talablari bilan o'zgarib bordi. O'rga Osiyoda suvga bo'lgan katta ehtiyoj sopol idishlarning turlarini ko'payishiga olib keldi. Xalq ustalari bu idish va buyumlarni tayyorlash bilan bir qatorda ularni yuksak did bilan

bezardilar. Rossiyada XIX asrda arzon baho chinni ishlab chiqarishning keng yoʻlga qoʻyilishi va markaziy Rossiyadan chinnimahsulotlari koʻp keltirilishi Oʻrta Osiyo kulollari bozorini birmuncha susaytirdi. Lekin arzon sopol idish va buyumlarga boʻlgan talab, ayniqsa, arxitekturada kulolchilik mahsulotlarining zarurligi kulolchilikning uzluksiz davom etishini taqozo etdi [3].

Maqsad. Kulolchilik Oʻrta Osiyoda, ayniqsa, oʻzbeklar va tojiklar yashaydigan shahar hamda qishloqlarda keng rivoj topgan. Qoratogʻ, Samarqand, Shahrisabz, Gʻijduvon, Toshkent, Rishtonda sopol idishlarni sirlab bezatishning oʻziga xos uslublari vujudga kelgan. XIX asrda kulolchilikning yirik markazlari boʻlgan. Bu yerlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar pishiq, chiroyli, siri nafis, naqshlari koʻrkamligi bilan diqqatni tortadi.

Oktabr toʻntarilishidan keyin kulollar mehnatini uyushtirishga alohida eʼtibor berilgan. 1930 yilda Toshkentda eksperimental keramika, Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932 yilda Toshkentda oʻquv-ishlab chiqarish ustaxonasi ishga tushdi, qisqa muddatli kurslar tashkil qilinib, kulollar tayyorlangan, ularning malakalari oshirib turilgan. Ulugʻ Vatan urushining ogʻir yillarida ham kulolchilikka katta eʼtibor berildi. 1943 yilda Shahrisabzda oʻquv-ishlab chiqarish badiiy kombinata ishga tushgan. Turob Miraliev (Toshkent), Rustam Egamberdiev, Karim Hazratqulov (Shahrisabz), Uzoq Shermatov, Xolmat Yunusov (Rishton), Muhammad Siddiq, Usmon Umarov (Gʻijduvon) singari oʻnlarcha atoqli kulollar yoshlarga taʼlim-tarbiya bergan. Oʻzbekistonda kulolchilik ishlarini rivojlantirish, yoshlardan kulollar tayyorlash, kulolchilikni tadqiq etishda Oʻzbekiston xalq rassomi, sanʼatshunoslik nomzodi Muhiddin Rahimov samarali mehnatqildi. Gʻijduvon va Rishtonda kulolchilik, ayniqsa, rivoj topib, bu yerlarda oʻnlarcha kulolchilik ustaxonalari ishladi. 1940-yillarda Gʻijduvondagi “Namuna”, Rishtondagi “Yangi hayot”artellarining mahsulotlari butun respublikada mashhur boʻlgan.

Mashhur ganch ustasi Ziyovuddin Yusupovning - “Ganch oʻymakorligi sanʼati ming yillik tarixga ega. Xalq amaliy sanʼatining bu turi Eron, Turkiya va Turkistonda keng tarqalgan boʻlib, hozirgacha davom etib kelmoqda. Ganchkorlik sanʼatining imkoniyatlari juda keng. Uni xohlagan shaklga solish mumkin va bu sanʼat turida ota-bobolarimiz oʻz orzu-umidlarini, madaniyatini koʻrsatib borgan, ularga davr falsafasi singib ketgan”, degan fikrni keltirib, Behzod Norboev quyidagilarni yozadi: “Ziyovuddin aka Yusupov Buxoro ganchkorlik maktabi, Umarjon aka Tohirov Xiva ganchkorlik maktabi usullarida ijodiy ish boshlaydilar. Ularni bir-biriga tutashtirgan niyat oʻzbek xalqining amaliy sanʼat sohisidagi nufoʻzini mustahkamlashga hissa qoʻshishi boʻldi. Ularning hozirgacha bajargan ishlarining sanab ardogʻiga yetib boʻlmaydi: Metroning “Milliy bogʻ” bekati, Qarshi shahridagi memorial kompleks va viloyat teatri, Toshkent qishloq xoʻjaligini irrigatsiyalash va mexanizatsiyalash muxandislari instituti binosi bezaklari” [9].

XIXasrda Buxoro, Qoʻqon, Margʻilon, Samarqand, Toshkent, Shahrisabz va Xorazmda kandakorlik maktablari vujudga keldi.[4]

Inqilobdan keyin kandakorlar artellarga uyushtirildi. 50-yillardan boshlab sovgʻa buyumlari, badiiy buyumlarga talab koʻchayishi bilan ularni ishlab chiqarish ham keng yoʻlga qoʻyildi. Kandakorlik sexlari barpo etildi. Bu sexlarda kandakorlikning turli maktablariga mansub (Masalan, Qoʻqonda L.Fozilov, Buxoroda S. Hamidov, Xivada Yo. Bekjonov kabi) ustalar yoshlarga kandakorlik sanʼatini oʻrgatib kelganlar. Qoʻqon va Margʻilon kandakorlik maktabi namunalarida bogʻ-rogʻlar, chamanzorlar tasvirlanadi, naqshlar sayoz oʻyib, tor zaminli qilib ishlanadi. Toshkentda ishlanadigan mis buyum va idishlar yirik, soddaroq naqshlar bilan bezatiladi. Buxoro maktabi naqshlari esa murakkab va nafis. Qarshi va Shahrisabz kandakorlik naqshlariga qimmatbaho toshlar, rangdor shishalar kadaladi.

Samarqand kandakorlik naqshlarida geometrik shakllar koʻp uchraydi. Xorazm kandakorlari esa oʻta murakkab oʻsimliksimon va geometrik shakllardan jimjimador naqshlar hosil qilib ishlaydilar [5].

Izlanish obʼekti. Hozirgi vaqtda (2005 yil) Oʻzbekistonda mavjud 347,4 ming korxonaning 93,0% i nodavlat va faqat 7,0% i davlat korxonalaridan tashkil topgan. Nodavlat korxonalarining 48,6 % i fermer va dehqon xoʻjaliklaridan, 2,1% i aksiyadorlik jamiyatlaridan, 1,9% i chet el investitsiyalari mavjud korxonalaridan va 40,4% i boshqa turdagi korxonalaridan tashkil topgan. Respublikada jami band aholining 77,2% i nodavlat, 22,8% i davlat sektorlariga toʻgʻri keladi. Demak, Oʻzbekistonda ham iqtisodiyotning bozor modeliga oʻtish jadal surʼatlarda amalga oshmoqda.

Maʼlumki, Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda aholi bandligini taʼminlash maqsadida kasanachilikka katta eʼtibor qaratilmoqda.

Ayni paytda hunarmandchilik Respublika “Hunarmandlar” uyushmasiga jipslashtirilib, ularning faoliyatini rivojlantirish maqsadida dasturlar qabul qilish yoʻli bilan keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Respublika boʻyicha “Hunarmandlar”uyushmasida roʻyxatda turgan ishchilarning umumiy soni

2011 yilda 21106 nafar kishiga yetdi. Shundan, Farg'ona mintaqasining ulushi 5538 nafar kishiga to'g'ri kelib, bu respublikadagi barcha hunarmandlarning 26,5 foizi demakdir.

Farg'ona mintaqasining hunarmandlar sonini viloyatlar kesimida tahlil etganda ularning deyarli yarimi (2700 nafar kishi) Farg'ona viloyatiga to'g'ri keladi. Andijon (1904 nafar kishi) va Namangan (934 nafar kishi) viloyatlarida esa nisbatan kam.

Mustaqillik yillarida ayollarning ishlab chiqarishdagi ishtirokiga ahamiyat ortdi. Respublikada 2011 yilda hunarmand ayollar soni 6983 nafar kishiga yetdi, shundan 1853 nafar kishi, ya'ni 26,3 foizi Farg'ona mintaqasida tuplangan. Agar, respublikada hunarmand ayollar jami hunarmandlarning 33,2 foizini tashkil etishi e'tiborga olinsa, Farg'ona mintaqasidagi hunarmand ayollar mintaqadagi jami hunarmandlarning salkam 34 foizini tashkil etadi. Bu mintaqada hunarmand ayollarga e'tibor yuxoriligi bilan izohlanadi. Jumladan, Farg'ona viloyatida viloyat hunarmandlarining 46 foizini, Andijon viloyatida 25 foizini va Namangan viloyatida 13 foizini tashkil etadi. Mintaqaning Andijon va Namangan viloyatlarida Farg'ona viloyatiga nisbatan ayollar ishtiroki ancha kam.

Qo'llaniladigan uslub. 2011 yilda Respublika "Hunarmand" uyushmasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 55608,5 million so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Shundan 14021,7 million so'mlik mahsulot Farg'ona mintaqasiga va 41586,8 million so'mlik mahsulot Respublikaning boshqa viloyatlariga to'g'ri keladi. Mintaqada Respublikadagi hunarmandchilik mahsulotlarining 25,2 foizi ishlab chiqariladi. Hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi viloyatlar kesimida tahlil etilganda, Andijon viloyatida mintaqada ishlab chiqariladigan hunarmandchilik mahsulotlarining yarimidan ko'pi (51,7%) tayyorlanadi. Mintaqaning Farg'ona va Namangan viloyatlarida mahsulot ishlab chiqarish hajmi ancha kam.

1-jadval

Xalq amaliy sanati va milliy hunarmandchilik sohalarining mahsulot ishlab chiqarishdagi hissalar (foizda)

T/r	Faoliyat turlari	O'zbekiston bo'yicha	Shu jumladan mintaqalar bo'yicha					
			Toshkent	Farg'ona	Zarafshon	Mirzacho'l	Janubiy	Quyiqandaryo
1.	Kulolchilik, tandirchilik, chinnisozlik	100	78,1	18,8	2,1	0,4	0,4	0,5
2.	Miniatyurachilik, rassomchilik	100	50,6	36,9	8,9	-	1,9	1,7
3.	Naqqoshlik, ganch o'ymakorligi	100	23,7	32,0	38,1	2,5	1,0	2,7
4.	Pichoqchilik, kondakorlik, tunukasozlik, temirchilik	100	9,0	74,9	11,4	1,4	0,9	2,5
5.	Zardo'zlik, kashtachilik, chokli buyumchilik	100	1,7	90,2	6,6	0,4	0,4	0,7
6.	Yog'och o'ymakorligi	100	10,3	69,3	12,4	1,3	1,1	5,6
7.	Zargarlik	100	55,8	33,7	6,7	1,5	0,7	1,6
8.	Gilam, atlas to'qish, chopondo'zlik, do'ppido'zlik, gazlamaga gul bosish	100	4,8	71,0	19,7	0,9	0,6	3,0
9.	Hijimli qoliplarda kuyuvchi ustachilik	100	13,3	51,4	33,4	1,1	0,1	0,7
10.	Kosibchilik	100	13,7	80,9	3,9	0,8	0,2	0,5
11.	Charmdo'zlik, egar-jabdug' yasash	100	23,7	63,5	10,2	1,0	0,3	1,3
12.	Uy-ro'zg'or buyumlarini yasash	100	4,7	72,3	18,8	3,0	0,6	0,6
13.	Qo'g'irchoqsozlik	100	2,7	17,2	78,9	0	0,1	1,1
14.	Boshqalar	100	77,8	0,8	9,7	2,2	1,7	7,8
<b>Jami</b>		<b>100</b>	<b>18,5</b>	<b>66,3</b>	<b>11,5</b>	<b>0,9</b>	<b>0,6</b>	<b>2,2</b>

Izoh: 1- jadvaldagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi "Hunarmand" uyushmasining 2010 yil materiallari asosida tuzildi.

Bu hududlarda kasanachilik, hunarmandchilikka mahalliy shart-sharoitlarning yaratilishidagi sustkashlik bilan izohlanadi.

O'tmishdagi bobolarimiz qoldirgan meros, madaniy boyliklar, milliy qadriyatlarni hurmat qilish, ularni o'rganishni har bir inson buni o'zida his etmog'i kerak.

Shu o'rinda milliy hunarmandchilik haqida ham to'xtalib o'tar ekanmiz, eng avvalo,



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san’atini yanada rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida xalq badiiy hunarmandchiligining asriy an‘analari va o‘ziga xos turlarini qayta tiklashga alohida e‘tibor qaratilgan.

Respublika xalq amaliy san’ati va milliy hunarmandchilik sohalari mahsulotining hududiy tarkibi bevosita hunarmandchilikning tarixan tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi bilan bog‘liq. Unda Farg‘ona mintaqasining ishtiroki o‘ziga xosdir [6].

Mintaqa naqqoshlik va ganch o‘ymakorligi; pichoqchilik, kandokorlik, to‘nikasozlik va temirchilik zardo‘zlik va kashtachilik yog‘och o‘ymakorligi; kosibchilik charmdo‘zlik va egar-jabdug‘ yasash bo‘yicha respublikada birinchi o‘rinda turadi [7].

Jumladan, zardo‘zlik va kashtachilik mahsulotlarining 90 foizi, kosibchilik mahsulotlarining 80 foizi, pichoqchilik, gilamchilik, atlas to‘qish, chopondo‘zlik, do‘ppido‘zlik va uyro‘zg‘or buyumlarining 70 foizdan ortig‘i, yog‘och o‘ymakorligi, charmdo‘zlik va egar-jabdug‘ mahsulotlarining 60 foizdan ortig‘i Farg‘ona mintaqasida ishlab chiqariladi.

Mintaqa kulolchilik, tandirchilik, chinni sozlikda Toshkent va Quyi Amudaryo mintaqasidan keyingi 3-o‘rinni, miniatrachilik va rassomchilikda Toshkent mintaqasidan keyingi 2-o‘rinni egallaydi. Zargarlik buyumlari yasashda Toshkent mintaqasidan keyingi ikkinchi o‘rinni egallab, mintaqada respublikada tayyorlanadigan jami zargarlik buyumlarining 33,7 foizini ishlab chiqaradi. Bu Mirzacho‘l va Quyi Amudaryo mintaqalarida ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlaridan ikki hissa ortiq demakdir.

Respublikada tayyorlanadigan jami qo‘g‘irchoqlarning qariyb 80 foizi Zarafshon mintaqasiga to‘g‘ri keladi. Farg‘ona mintaqasi Respublikadan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagani holda mintaqada jami qo‘g‘irchoqsozlik mahsulotlarining 17,2 foizi tayyorlanadi.

2010 yilda xalq amaliy san’ati va milliy hunarmandchilik sohasida 36563,4 mln so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, shundan 24226,7 mln so‘mlik mahsulot, ya‘ni 66,2 foizi Farg‘ona mintaqasi hisobiga to‘g‘ri keladi.

O‘zbekiston xalq ustalari birlashmasi Raimberdi Matjonov ustaxonasida hunarmandchilik maktabi ochish taklifini bergan, bu ustaga hunarmandchilik sir-asrorlarini keng targ‘ib etish imkonini berdi. Uning shogirdlari Davron Sa‘dullaev, Amin Mirzaev, Maryamjon Matjonova, Mukarrama Sa‘dullaeva hozir badiiy kulolchilik san’atini rivojlantirishda katta hissa qo‘shmoqda. Tarixiy obidalarni ta‘mirlashda kulolning xizmatlari katta. 1956 yilda Xivadagi Pahlavon Mahmud maqbarasini ta‘mirlashda qatnashdi. U gumbazning pastki qismi uchun qadimgi uslubda zangori rangda koshinlar tayyorlab bergan. Ular hozirgi kunda avvalgidek rangini yo‘qotmay turibdi. Kulol yana ko‘hna ark darvozasining ikki minorasini ta‘mirlashda qatnashdi.

Agarda, milliy madaniyatga boshqa bir turdosh yoki turdosh bo‘lmagan madaniyat tazyiq yoki zo‘ravonlik bilan kurashsa, u holda uning rivojlanishi u yoqda tursin, balki barchasi haminqirozga yuz tutadi. Boshqacha qilib aytganda, na u yoqlik, na bu yoqlik bo‘lmagan madaniyat yuzaga keladi, ko‘p narsalar unutiladi. Chunonchi, arab yoki mug‘ul istilosi yerlik xalq madaniyatini qorishtirib tashlagan bo‘lsa, rus, Yevropa madaniyati, Turkistonning bosib olishi natijasida yerlik aholi istasa-istamasa - Rus Yevropa madaniyatidan bahramand bo‘lgan bo‘lsa, sovetlar davrida arab alifbosining eng avvalo, lotin, keyinchalik kirillida (rus alifbosi)ga zo‘rlab o‘tkazilishi fan va madaniyatimizda, adabiyot va san’atimizda, o‘tmish tariximizni o‘rganishimizda qanday salbiy oqibatlariga olib kelgan.

Olingan natijalar. Turkistonda yangi sobiq ittifoq tuzumining o‘rnatilishi, lekin uning asosiy prinsiplarini buzilgan holda talqin va amal qilinishi, jumladan, yakka yoki oilaviy tartibda, mehnat qiluvchi hunarmandlar va amaliy san’at vakillari hamda hunarmandchilik shirkatlari xodimlari xususiy mulk egalari deb topilishi, ularga moliya tashkilotlari tomonidan juda katta miqdorda soliq solinishi, ularni faoliyatining mehnat stajiga o‘tmasligi, ularga qarilik nafakasi to‘lanmasligi, yana shuni qayd qilish lozimki, hatto ba‘zi bir saqlanib qolgan yakka tartibdagi yoki oilaviy hunarmandlar, xususiy mulk egasi deb topilishi evaziga, ularning mol-mulki va do‘konlarining musodara qilinishi, o‘zlarini esa quvg‘in qilinishi xalq hunarmandchiligi va amaliy san’atning ildiziga bolta urdi. Bunday nohaqliklar hunarmandlar mehnatini qadrsizlantirdi va ularning sinishiga olib keldi. Qatag‘onlik munosabatlariga chiday olmagan hunar sohiblari artel, fabrika va zavodlarga ishga o‘tib kekishga majbur bo‘ldilar.

Xulosa. Milliy xalq hunarmandchiligiga, uning amaliy san’atiga nisbatan ham siyosiy, ham iqtisodiy ojizlik edi. Chunki, dunyoga dovrig‘i ketgan, xalq hunarmandchiligi va amaliy san’atida durdonalar yaratgan, xalqni ist‘emol buyumlari bilan ta‘minlagan, ish bergan usta-shogirdlar, hunarmandchilik va amaliy san’at maktablarining nomi ana shunday qabixlik va ojizlik evaziga

tobora o'sa boshladi. Oqibatda, jahonga mashhur Turkiston gilamlari-yu, naqshindor ustalari, zargalik buyumlari-yu - tarixiy yodgorliklari, chinni idishlari-yu - shohi so'zalarini, muzey yoki shaxsiy to'planma (kolleksiya)larda uchratish mumkin, xolos.

Tavsiyalar. Ma'lumki, O'zbekistonda so'nggi yillarda aholi bandligini ta'minlash maqsadida kasanachilikka katta e'tibor qaratilmoqda. Ayni paytda hunarmandchilik Respublika "Hunarmandlar" uyushmasiga jipslashtirilib, ularning faoliyatini yanada rivojlantirish maqsadida keng imkoniyatlar yaratish imkonini beradi. Jumladan:

O'zbekiston xalq ustalari hamkorligida hunarmandchilik maktabini ochish va ixtidorli o'quvchilarni jalb etish;

ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsi hunarmandchilik kasbini takomillashtirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash;

o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda hunarmandchilik darslarini shakllantirishga qaratilgan mashg'ulotlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –Toshkent: Mehnat”, 1991. B.37.
2. Sergeev B. O'zbekistonda miskarlik. Toshkent, 1960. B.67.
3. Пещерева Е. М. Гончарное производство Средней Азии. М.; Л., 1959. Б.54.
4. Развадовский В. Опыт исследования гончарного и некоторых других кустарных промыслов в Туркестанском крае. Ташкент, 1916. С.74-75.
5. Ташходжаев Ш. С. Художественная поливная керамика Самарқанда. IX - начало XIII вв. Ташкент, 1967. С.95-97.
6. Рахимов М. К. Народные традиции в современной художественной керамике Узбекистана. Ташкент, 1964. С.42-43.
7. Rashid Boytullaev. Sohibqiron davrida hunarmandchilik // Toshkent oqshomi, 2004 yil 7 aprel.
8. Shomirzayev M. Kh. Technology of Educational Process in School Technology Education // The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – №. 07. – С. 217.
9. Shomirzaev M. X. Texnologiya fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik.- T.: "TerDU NMMN" 2021, - 228 b.